

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Egamberdiyeva Mubinaxon Avazbek qizi

Qo'qon universiteti talabasi

Valiyeva Nargiza Athamboyevna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari batafsil tahlil qilinadi. XXI asr ta'lim tizimida har bir bolaga, uning imkoniyatlaridan qat'iy nazar, sifatli va teng huquqli ta'lim berish muhim vazifa sifatida qaraladi. Inklyuziv ta'lim tizimi sog'lom va imkoniyati cheklangan bolalarni bir maktab muhitida birlashtirib, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish imkonini yaratadi. Bu jarayonda bolalar o'zaro hurmat, bag'rikenglik, mehr-oqibat va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Maqolada inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, boshlang'ich sinflarda tatbiq etilishi va uning amaliy samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, mamlakatimizda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, pedagogik tavsiyalar va pedagoglarning roli yoritilgan. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv muhit yaratish nafaqat o'quvchilarning individual salohiyatini rivojlantiradi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlaydi. Shu bois, inklyuziv ta'lim har bir bolaning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, oilasidan ajralmagan holda ta'lim olishi va sog'lom ijtimoiy muhitda tarbiyalanishini ta'minlaydi. Maqola mazmuni inklyuziv ta'limning amaliy va nazariy ahamiyatini yoritib, pedagogika va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun foydali tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, inklyuziv muhit, bolalarning individual ehtiyoji, teng huquqli ta'lim, pedagogik tavsiyalar, jamiyat taraqqiyoti, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy moslashuv, hurmat va mehr-oqibat, ta'lim sifati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida¹ tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son.

Albatta, Inklyuziv ta'lim Prezidentimiz e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jamiyat kamoloti uchun eng muhim bosqichlardan biridir. Jumladan, PF-5712-son Farmon asosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan kelajak avlod uchun teng imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining yetakchi yo'nalishiga aylandi.

XXI asrda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri har bir farzandning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga sifatli va teng huquqli ta'lim olish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etish, ayniqsa, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash maqsadida, jahon miqyosida dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Globallashuv, inson huquqlari va ijtimoiy inklyuziv tamoyillarining ustuvorligi, barcha bolalarni yagona ta'lim makonida qamrab olish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, inklyuziv ta'lim bu zamonaviy jamiyatda har bir bolaga teng imkoniyatlar beruvchi ilg'or va insonparvar yondashuv bo'lib, u ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida joriy etilishi bilan o'zining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.²

Albatta, har bir o'quvchi, xoh u sog'lom bo'lsin, xoh sog'lig'ida nuqsoni bo'lsa ham, ta'limda ular teng ko'rilmog'i zarur. Inklyuziv ta'limda o'qituvchi har bir bolaning qobiliyatlarini va imkoniyatlarini hisobga olishlari talab qilinadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim boshlang'ich ta'lim bosqichida alohida ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim har xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi. Bunday yondashuv diskriminasiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida uzlarining o'qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar.³

Mening fikrimcha, inklyuziv ta'lim jamiyat uchun juda muhim tizim hisoblanadi. Chunki bu tizim orqali bolalar bir biriga mehribon bo'lishga, hurmat va g'mxo'rlik qilishga o'rganadilar. Bu esa faqat imkoniyati cheklangan bolalarga emas, balki barcha o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonaman.

² Xasanova Asila Xasan qizi. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI. Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research ISSN: 3060-4745 IF(Impact Factor)10.41 / 2024, VOLUME-2, ISSUE-6

³ U.U. Turamuratov va boshqalar. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI. INKLYUZIV TA'LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA .(O'quv qo'llanma). Termiz-2024. 5-6-betlar. 173 sahifa.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zahirida, eng avvalo, kelajakavlodning barkamol bo'lib ulg'ayishi, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda.⁴

Darhaqiqat, inklyuziv ta'limdagi amalga oshirilayotgan islohotlar bolalar orasidagi tenglikni, sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan bag'rikenglikni, har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqiga ega ekanligini va ularga nisbatan ijtimoiy adolatni mustahkamlashni targ'ib etadi.

Inklyuziv ta'lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'lim bir qator muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Jumladan,

- inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog'liq emasligi prinsipi;
- har bir shaxsning his qilish va o'ylash layoqatiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;
- har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;
- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining aniq hamkorlik
- har bir o'quvchining o'z tengdoshlarining qo'llab-quvvatlovi va do'stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;
- turli-tumanlik o'quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta'minlashi zarurligi prinsipi kabilar.⁵

Inklyuziv ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'ni va roli quyidagi vazifalarning hal etilishi talab etiladi: ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash; jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan

⁴ Raimjonova Muslima. INKLYUZIV TA'LIMDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI. ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ. В. 677.

⁵ Raximova Xurshidaxon Sadikovna. INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI. E Conference World. В.34.

bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish; jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.⁶

Shubhasiz, inklyuziv ta'lim tizimi har bir bolaga, uning imkoniyatlaridan qat'i nazar, teng ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun zarur sharoitlar yaratilsa, ular ham o'z qobiliyatlarini namoyon qila oladilar. Eng asosiysi, bolalarning ota-onasidan, yaqinlaridan ajramagan holda ta'lim olishlari ularning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – o'quvchilarni faqat tayyor bilim oluvchilar sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, ijodiy g'oya yaratuvchi shaxslar sifatida shakllantirishdir. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalar samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchi tafakkurini faollashtiradi, uning qiziqishini uyg'otadi va bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beradi.⁷

Xulosa qilib shuni aytish joizki, maktabda tahsil oluvchilarga ta'lim berish uchun eng avvalo, inklyuziv ta'limdan to'liq xabardor, balalarni yaxshi ko'rib ardoqlovchi, har qanday holatda ham ularga mehr ko'rsata oladigan, eng asosiysi, inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalarini to'liq anglagan holda ta'lim jarayonini mazmunli tashkil eta oladigan pedagoglarning jalb qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv muhitni yaratish har bir o'quvchining imkoniyatlarini erta aniqlash va ularni yuksaltirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'lim olayotgan bolalar bir-birini hurmat qilish, ko'maklashishga o'rganadilar. Natijada mehr-oqibat shakllanadi va sog'lom muhit yaratiladi. Har bir yosh avlodga sifatli ta'lim yaratish – bizning bosh vazifamiz va burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son.
2. Xasanova Asila Xasan qizi. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI. Acumen: International Journal of Multidisciplinary Research ISSN: 3060-4745 IF(Impact Factor)10.41 / 2024, VOLUME-2, ISSUE-6
3. U.U. Turamuratov va boshqalar. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI. INKLYUZIV TA'LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA .(O'quv qo'llanma). Termiz-2024. 5-6-betlar. 173 sahifa.

⁶ N.N.azamova. INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARI JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI. NTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. B.147.

⁷ Valiyeva, N. A. (2025). Forming Independent, Creative And Design Thinking In Students Through Innovative Technologies. TLEP – International Journal of Multidiscipline, 2(5), 30-34.

<https://tlepub.org/index.php/1/article/view/309>

4. Raimjonova Muslima. INKLYUZIV TA'LIMDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI. ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, БЕСТНИК НАУКИ. B. 677.
5. Raximova Xurshidaxon Sadikovna. INKLYUZIV TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI. E Conference World. B.34.
6. N.N.azamova. INKLYUZIV TA'LIM TAMOYILLARI JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI. NTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. B.147.
7. Valiyeva, N. A. (2025). Forming Independent, Creative And Design Thinking In Students Through Innovative Technologies. TLEP – International Journal of Multidiscipline, 2(5), 30-34. <https://tlepub.org/index.php/1/article/view/309>